




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

21 sentyabr, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

(20 oktabr 2025 yildan 21 sentyabr 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,529% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,595% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,834% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 9,913% darajaga oshdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,913% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,419% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,518% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,421% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,466% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,616% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,732% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,85% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,62% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich ko'tarilib — 3,85 darajasida yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,62% (3 oylik) va 2,978% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,978% (6 oylik) va 2,682% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 811,4 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 133,0 million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 765 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 11 839 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 0,95% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




21.09.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Apexbankda* qayd etilgan – 11 840 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 11 845 – 11 890 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Openbankda* qayd etilgan – 11 800 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 795 – 11 765 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



RUB/CNY kursi barqaror diapazonda pasaydi

Ko'rib chiqilayotgan davrda RUB/CNY kursi 84,6–85,1 diapazonida mo'tadil o'zgaruvchanlikni namoyish etdi. 85,1 darajasidagi maksimal qiymatga erishgach, kurs 84,6 gacha korreksiya qilindi. Umuman olganda, valyuta juftligi dinamikasi nisbatan barqaror bo'lib qoldi. Kursga Rossiya va Xitoydagi ichki iqtisodiy omillar, shuningdek, jahon moliya bozorlaridagi vaziyat ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Qisqa muddatli istiqbolda kursning joriy darajalarga yaqin saqlanib qolishi, tashqi bozor omillari ta'sirida esa mo'tadil tebranishlar kuzatilishi kutilmoqda.



RUB/CNY davrni kichik o'sish bilan yakunladi

Ko'rib chiqilayotgan davrda RUB/CNY kursi nisbatan barqaror dinamikani namoyish etdi. Davr boshida ko'rsatkich 12,1 darajasida bo'lgan. Bir necha kun davomida kurs o'zgarishsiz saqlanib qoldi. 17-sentabr kuni ko'rsatkich 12,2 gacha oshdi. 18-sentabr kuni kurs erishilgan darajada saqlanib qoldi. Umuman olganda, ko'rib chiqilayotgan davrda kursning biroz o'sishi kuzatildi. O'zgarish diapazoni 12,1–12,2 ni tashkil etib, bu sezilarli o'zgaruvchanlik kuzatilmaganidan dalolat beradi.




EUR/USD davrni pasayish bilan yakunladi


Ko'rib chiqilayotgan davrda EUR/USD kursi pasayish dinamikasini namoyish etdi. 14-sentabr kuni ko'rsatkich 1,1599 darajasida bo'lgan, shundan so'ng 15 va 16-sentabr kunlari 1,1556 gacha pasaydi. 17-sentabr kuni kurs pasayishini davom ettirib, 1,1497 darajasiga tushdi. 18-sentabr kuni esa ko'rsatkich 1,1491 gacha pasaydi. Umuman olganda, ko'rib chiqilayotgan davrda kurs 0,0108 ga pasaydi. Natijada, davr yakuniga kelib, EUR/USD juftligi kuzatuv davri boshidagiga nisbatan pastroq darajada shakllandi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin kotirovkalari hafta ikkinchi yarmida sezilarli darajada oshdi



14–18-sentabr kunlari oltin kotirovkalari bir troya unsiyasi uchun 4 297,9 dollardan 4 376,9 dollargacha, ya'ni 79,0 dollarga oshdi. Hafta boshida oltin narxi pasayish tendensiyasini namoyon qilib, 15-sentabr kuni 4 292,7 dollarni, 16-sentabr kuni esa davrning minimal darajasi — 4 262,1 dollarni tashkil etdi. 17-sentabrdan boshlab bozor dinamikasi ijobiy tomonga o'zgardi. Ushbu kunda oltin kotirovkalari 4 340,1 dollargacha ko'tarilgan bo'lsa, 18-sentabr kuni 4 376,9 dollarga yetib, ko'rib chiqilayotgan davrning maksimal ko'rsatkichini qayd etdi. Umuman olganda, hafta ikkinchi yarmida oltin narxining sezilarli tiklanishi kuzatildi.

Brent hafta yakunida bir barrel uchun 103,87 dollargacha pasaydi



14–18-sentabr kunlari Brent neftining kotirovkalari bir barrel uchun 105,68 dollardan 103,87 dollargacha pasaydi. Hafta boshida narxlar o'sib, 15-sentabr kuni 108,75 dollarlik maksimal ko'rsatkichga yetdi. Shundan so'ng bozor pasayish tendensiyasiga o'tdi. 16-sentabr kuni kotirovkalar 105,83 dollarni, 17-sentabr kuni 104,82 dollarni, 18-sentabr kuni esa 103,87 dollarni tashkil etdi. Shu tariqa, hafta boshidagi qisqa muddatli o'sishdan so'ng neft narxlar pasayish bilan tuzatildi. Mazkur dinamika jahon neft bozoridagi talab va taklif bo'yicha kutilmalarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, neft zaxiralari darajasi, qazib olish hajmlari hamda geosiyosiy vaziyat ham narxlarga qo'shimcha ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

TTF gaz narxi hafta davomida pasaydi



14–18-sentabr kunlari TTF gaz kotirovkalari 96,2 dan 90,7 gacha pasaydi. Hafta boshida bozor bosim ostida bo'lib, 17-sentabr kuni narx 88,3 darajagacha tushdi.

Narxlarning pasayishi Yevropada gaz zaxiralarning yetarli darajada ekani va talabning mo'tadilligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yetkazib berish hajmlarining barqarorligi ham qo'shimcha omil bo'lgan. 18-sentabr kuni narxlar avvalgi pasayishdan keyingi korreksiya fonida 90,7 gacha tiklandi. Umuman olganda, hafta davomida pasayish tendensiyasi saqlanib qoldi, biroq hafta oxirida barqarorlashuv belgilari kuzatildi.